



<https://doi.org/10.70728/a.series.ijt.v08.i04.069>

UO'K 902/904:069(575.1)

ARXEOLGIK MEROSNI ILMIY MUOMALAGA KIRITISH TAJRIBASI (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA)

Maxmudxon Asatullayevich Yunusov

- *“Ipak yo'li” xalqaro turizm va madaniy meros universiteti dotsenti, tarix fanlari
bo'yicha falsafa doktori. E-mail: maxmudxony@gmail.com*

Annotatsiya. Maqolada Samarqand viloyati misolida arxeologik merosni ilmiy muomalaga kiritish tajribasi tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi viloyatda XIX asr oxiridan to hozirgi davrgacha shakllangan arxeologik topilmalarni qayd etish, fondlarga qabul qilish, tavsiflash, nashr etish, kataloglashtirish va ilmiy talqin qilish amaliyotini kompleks ravishda baholashdan iborat. Maqolada arxeologik meros tushunchasining mazmuni ochib berilib, uning arxeologik joylar, obyektlar va topilmalar kabi tarkibiy qismlari o'zaro bog'liq tizim sifatida ko'rib chiqiladi. Ayniqsa, arxeologik merosning boshqa turdagi tarixiy-madaniy merosdan farqli jihati sifatida uning kontekst bilan uzviy bog'liqligi, ya'ni topilmaning ilmiy qimmatini uning qaysi qatlam, muhit yoki inshoot bilan aloqador holda aniqlanishi bilan belgilanishi asoslab beriladi. Samarqand viloyatida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida to'plangan ulkan ilmiy materiallarning ilmiy muomalaga kiritilish bosqichlari tarixiy nuqtai nazardan ko'rib chiqiladi. Rossiya imperiyasi davrida N. I. Veselovskiy, V. V. Bartold, V. L. Vyatkin singari tadqiqotchilar faoliyati orqali Samarqand yodgorliklari dastlab tavsif, xarita va ilmiy qayd darajasida muomalaga kirgani ko'rsatiladi. Sovet davrida esa bu jarayon ancha tizimli tus olib, arxeologik ekspeditsiyalar, ilmiy institutlar va maxsus nashrlar vositasida topilmalarni e'lon qilish hamda tarixiy xulosalar chiqarish amaliyoti kuchaygani ta'kidlanadi. Ayniqsa, Afrosiyob yodgorligi misolida dala hisoboti, fondlashtirish, alohida maqola, monografik tadqiqot va umumlashtiruvchi tarixiy xulosa bosqichlaridan iborat ilmiy muomalaga kiritish modeli yoritiladi.

Shu bilan birga, maqolada mavjud tajribaning muammoli jihatlari ham ochib beriladi. Xususan, viloyatda topilmalarni fondga qabul qilish va inventarlashtirish ancha rivojlangan bo'lsa-da, ularni yagona elektron katalog, ochiq raqamli baza, to'liq ilmiy nashr va ta'limiy platformalar orqali keng ilmiy va jamoatchilik muomalasiga kiritish yetarli darajada yo'lga qo'yilmagani qayd etiladi. Afrosiyob, Ko'ktepa, Kofirqal'a, Dabusiya va boshqa yirik yodgorliklar bo'yicha boy material jamlangan bo'lsa-da, ularning barchasi bir xil darajada

kataloglashtirilmagan va raqamlashtirilmagan. Maqolada Britaniya muzeyi hamda Pompey arxeologik parki kabi xalqaro tajribalar bilan qiyosiy tahlil o‘tkazilib, Samarqand viloyatida ham fond hujjatlari, qazishma hisobotlari, fotosuratlar, chizmalar va bibliografiyani birlashtiruvchi raqamli ilmiy platforma yaratish zarurligi asoslanadi.

Tadqiqot natijasida Samarqand viloyatida arxeologik merosni ilmiy muomalaga kiritish bo‘yicha kuchli tarixiy tajriba mavjudligi, biroq bu tajriba hali to‘liq integratsiyalashgan, ochiq va zamonaviy raqamli tizimga aylantirilmaganligi xulosa qilinadi. Arxeologik merosni saqlashning eng dolzarb vazifasi yangi qazishmalar sonini oshirish emas, balki allaqachon yig‘ilgan ilmiy materiallarni yagona standart asosida qayta ko‘rib chiqish, kataloglashtirish, raqamlashtirish va ilmiy hamda ta’limiy maqsadlarda faol joriy etishdan iborat ekanligi aniqlanadi. Shu ma’noda maqola Samarqand viloyati arxeologik merosini boshqarish, muzeylashtirish va ilmiy tadqiqot amaliyotini takomillashtirishga doir muhim ilmiy xulosalarni ilgari suradi.

Kalit so‘zlar: Arxeologik meros, ilmiy muomala, Samarqand viloyati, arxeologik kolleksiyalar, muzey fondlari, kataloglashtirish, raqamlashtirish, Afrosiyob.

Аннотация. В данной статье анализируется опыт введения археологического наследия в научный оборот на примере Самаркандской области. Основная цель исследования заключается в комплексной оценке практики фиксации, фондового учета, описания, публикации, каталогизации и научной интерпретации археологических находок, накопленных в регионе с конца XIX века до современного периода. В статье раскрывается содержание понятия археологического наследия, которое рассматривается как целостная система, включающая археологические памятники, объекты и находки. Особое внимание уделяется тому обстоятельству, что археологическое наследие отличается от других видов историко-культурного наследия своей неразрывной связью с контекстом: научная ценность находки определяется не только самим предметом, но и тем, из какого слоя, комплекса, сооружения или среды она происходит. Именно поэтому в статье подчеркивается приоритет сохранения и интерпретации контекста как основного условия полноценного научного изучения археологических материалов.

В работе прослеживаются исторические этапы введения археологических материалов Самаркандской области в научный оборот. Показано, что в период Российской империи деятельность Н. И. Веселовского, В. В. Бартольда, В. Л. Вяткина и других исследователей сыграла важную роль в первичном описании, картографировании и научной фиксации памятников Самарканда. В советский период этот процесс приобрел более системный характер: были созданы археологические базы, специализированные экспедиции, научные учреждения, а результаты раскопок начали регулярно публиковаться в профильных изданиях. Особенно подробно в статье рассматривается опыт Афрасиаба, где можно выделить несколько последовательных этапов введения материалов в научный оборот: полевой отчет, передача находок в музейный фонд, публикация отдельных статей и монографий, а также формирование обобщающих исторических выводов. Такой подход показывает, что научный оборот

представляет собой не только публикацию находки, но и ее включение в более широкий историко-культурный анализ.

Наряду с достижениями в статье выявляются и основные проблемы существующей практики. Отмечается, что в Самаркандской области достаточно хорошо развиты процедуры приема находок в фонды и их инвентаризации, однако включение материалов в единые электронные каталоги, открытые цифровые базы данных, полноформатные научные публикации и образовательные платформы пока остается недостаточным. Несмотря на наличие богатейших материалов по Афрасиабу, Коктепе, Кафиркале, Дабусии и другим памятникам, степень их каталогизации, цифровизации и доступности для исследователей остается неравномерной. В статье проводится сопоставление с международным опытом, в частности с практикой Британского музея и Археологического парка Помпеи, где научный оборот поддерживается за счет открытых электронных каталогов и цифровых архивов. На этом основании делается вывод о необходимости создания в Самаркандской области единой цифровой научной платформы, объединяющей фондовые документы, полевые отчеты, чертежи, фотографии и библиографию.

В результате исследования автор приходит к выводу, что в Самаркандской области существует прочная историческая традиция введения археологического наследия в научный оборот, однако эта практика пока не трансформировалась в полностью интегрированную, открытую и современную цифровую систему. Подчеркивается, что наиболее актуальной задачей является не столько увеличение числа новых раскопок, сколько повторное научное осмысление уже накопленных материалов, их стандартизированная каталогизация, цифровизация и широкое внедрение в научную и образовательную деятельность. В этом смысле статья предлагает важные выводы для совершенствования практики изучения, музеефикации и сохранения археологического наследия Самаркандской области.

Ключевые слова: Археологическое наследие, научный оборот, Самаркандская область, археологические коллекции, музейные фонды, каталогизация, цифровизация, Афрасиаб.

KIRISH.Arxeologik meros insoniyat tarixiy xotirasining eng muhim va o‘ziga xos qatlamlaridan biri bo‘lib, u o‘tmish jamiyatlarning turmush tarzi, xo‘jaligi, madaniyati, diniy tasavvurlari va ijtimoiy munosabatlari haqida bevosita moddiy dalillarni saqlab qoladi. Mazkur merosning asosiy xususiyati shundaki, u faqat alohida topilmalar yig‘indisidan iborat emas, balki o‘zining stratigrafik, funksional va makoniy konteksti bilan birgalikda ilmiy ahamiyat kasb etadi. Shu sababli arxeologik topilmalarni aniqlash, qayd etish, fondlarga qabul qilish, tavsiflash, kataloglashtirish va ilmiy talqin qilish jarayoni arxeologik merosni saqlash hamda undan samarali foydalanishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Samarqand viloyati O‘zbekistonning eng qadimiy va boy tarixiy-madaniy hududlaridan biri sifatida arxeologik yodgorliklarga nihoyatda boydir. Afrosiyob, Ko‘ktepa, Kofirqal’a, Dabusiya, Sazag‘on, Qo‘tirbuloq, Zirabuloq, Talibarzu, Jartepa kabi yodgorliklarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida turli davrlarga oid ulkan arxeologik materiallar to‘plangan. Mazkur topilmalar Samarqand vohasi tarixini qadimgi davrlardan

o‘rta asrlargacha izchil tiklashda muhim manba vazifasini bajaradi. Biroq ushbu boy ilmiy materialning barchasi bir xil darajada ilmiy muomalaga kiritilgan deb bo‘lmaydi. Ayrim yodgorliklar va topilmalar chuqur tadqiq etilib, ilmiy nashrlarda keng yoritilgan bo‘lsa, boshqa ko‘plab kolleksiyalar hali ham fondlar doirasida saqlanib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, Samarqand viloyati misolida arxeologik merosni ilmiy muomalaga kiritish tajribasini o‘rganish dolzarb ilmiy masalalardan biridir. Ushbu maqolada viloyatda shakllangan tarixiy tajriba, uning yutuq va muammolari, shuningdek, arxeologik kolleksiyalarni zamonaviy kataloglashtirish, raqamlashtirish va ilmiy hamda ta’limiy jarayonlarga kengroq jalb etish istiqbollari tahlil qilinadi. Maqolaning asosiy maqsadi Samarqand viloyatida arxeologik merosni ilmiy muomalaga kiritish amaliyotini baholash va uni takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini ko‘rsatib berishdan iborat

MATERIALLAR VA METODLAR

Mazkur maqolani tayyorlashda Samarqand viloyati arxeologik merosini ilmiy muomalaga kiritish bilan bog‘liq turli xil manba va materiallardan foydalanildi. Tadqiqotning asosiy manbaviy bazasini Samarqand viloyatida XIX asr oxiridan XXI asr boshlarigacha olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida shakllangan ilmiy adabiyotlar, qazishma hisobotlari, muzey fond hujjatlari, inventar kitoblari, katalog materiallari hamda alohida yodgorlik va topilmalar bo‘yicha e‘lon qilingan maqola va monografiyalar tashkil etdi. Ayniqsa, Afrosiyob, Ko‘ktepa, Kofirqal’a, Dabusiya, Sazag‘on, Qo‘turbuloq, Zirabuloq, Talibarzu va Jartepa kabi tayanch yodgorliklar bo‘yicha to‘plangan ma’lumotlar tadqiqotning asosiy empirik materiallari sifatida xizmat qildi.

Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, tizimli, tavsifiy va tahliliy metodlardan foydalanildi. Tarixiy-qiyosiy metod yordamida Samarqand viloyatida arxeologik merosni ilmiy muomalaga kiritish jarayonining Rossiya imperiyasi davri, sovet davri va mustaqillik yillaridagi bosqichlari o‘zaro solishtirildi. Tizimli yondashuv asosida arxeologik meros arxeologik joylar, obyektlar va topilmalar majmui sifatida kompleks ravishda ko‘rib chiqildi. Tavsifiy metod arxeologik kolleksiyalarni fondlashtirish, inventarlashtirish, kataloglashtirish va ilmiy nashr etish amaliyotini yoritishda qo‘llanildi. Tahliliy metod esa mavjud tajribaning yutuq va muammolarini aniqlash, ilmiy muomalaga kiritish darajasini baholash hamda xalqaro amaliyot bilan qiyoslash imkonini berdi.

Shuningdek, maqolada qiyosiy tahlil metodi asosida Britaniya muzeyi va Pompey arxeologik parki kabi xalqaro tajribalar Samarqand viloyatidagi amaliyot bilan solishtirildi. Bu esa arxeologik kolleksiyalarni raqamlashtirish, ochiq kataloglar yaratish va ilmiy ma’lumotlarni keng jamoatchilikka taqdim etish istiqbollarini aniqlashga xizmat qildi. Natijada tadqiqotda arxeologik merosni ilmiy muomalaga kiritishning mavjud holati hamda uni takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari aniqlab berildi.

NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

Arxeologik meros tushunchasi moddiy madaniy merosning alohida, o‘ta nozik va qayta tiklab bo‘lmaydigan qatlamini anglatadi. Arxeologik meros resurslari ikki asosiy tarkibiy qismga ajratiladi: bir tomondan landshaftda saqlanayotgan arxeologik joylar va yodgorliklar, ikkinchi tomondan esa muzeylar hamda boshqa to‘plamlarda saqlanayotgan ashyolar kolleksiyalari. Shu asosda arxeologik merosni uch bosqichli tasnifda ko‘rsatish

mumkin: arxeologik joylar, arxeologik obyektlar va arxeologik topilmalar. Arxeologik joylarga aholi punktlari, qabristonlar, irrigatsiya tizimlari, ishlab chiqarish va hunarmandchilik majmualari; arxeologik obyektlarga ana shu yodgorliklar tarkibidagi alohida inshootlar; arxeologik topilmalarga esa shu makondan topilgan barcha harakatlanuvchi ashyolar kiradi.

Arxeologik merosni boshqa tarixiy meros turlaridan ajratib turadigan asosiy belgi uning kontekst bilan uzviy bog‘liqligidir. Arxeologik topilma faqat buyum sifatida emas, balki qaysi qatlamdan, qanday muhitdan, qaysi inshoot yoki xo‘jalik tizimi bilan bog‘liq holda topilgani bilan ilmiy ahamiyat kasb etadi. Shu sababli arxeologik merosni talqin qilishda “buyum” emas, “kontekst” ustuvor sanaladi. Arxeologik merosni o‘rganish va ilmiy muomalaga kiritish uni muhofaza etishning eng muhim shartidir. Chunki arxeologik obyekt buzilgach yoki topilma o‘z kontekstidan ajralgach, uning katta qismi qayta tiklab bo‘lmaydigan ilmiy axborotini yo‘qotadi. Shu bois bu jarayon huquqiy himoya, ro‘yxatga olish, ilmiy kuzatuv, konservatsiya, favqulodda kuzatuv-qutqaruv ishlari va fondlarda xavfsiz saqlashni birlashtirgan tizim sifatida qaralishi lozim.

Samarqand viloyatida arxeologik kolleksiyalar va yodgorliklarni ilmiy muomalaga kiritish bo‘yicha muayyan tajriba shakllangan. Ammo bu jarayon to‘liq tizimga aylangan deb bo‘lmaydi. Viloyatda XIX asr oxiridan hozirgacha olib borilgan qazishmalar natijasida juda katta ilmiy material jamlangan, ularning muayyan qismi hisobotlar, maqolalar, to‘plamlar, kataloglar va monografiyalar orqali ilmiy muomalaga kiritilgan. Biroq ilmiy muomalaga kiritishning umumiy holati shuni ko‘rsatadiki, bizda topilmani qayd etish va fondga qabul qilish tajribasi ancha rivojlangan bo‘lsa-da, uni to‘liq nashriy, raqamli, katalogik va ochiq ilmiy aylanish tizimiga kiritish darajasi hali ham notekis va ko‘p hollarda yodgorliklar kesimida emas, alohida topilmalar yoki alohida mavsumiy hisobotlar darajasida qolmoqda.

Avvalo, Samarqand viloyatida arxeologik materiallarni ilmiy muomalaga kiritishning tarixiy ildizlari ilk arxeologik tadqiqotlar davriga borib taqaladi. Tahlillardan ko‘rinadiki, Rossiya imperiyasi davrida Samarqand hududidan topilgan buyumlar tavsiflanib, ayrimlari Peterburgdagi ilmiy markazlar va muzeylarga yuborilgan, dastlabki tavsiflar, topografik rejalar va qazishmalar haqidagi qaydlar paydo bo‘lgan. Bu, bir tomondan, mustamlakachilik sharoitida kechgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, Afrosiyob va boshqa yodgorliklarning ilmiy muomalaga kirishining dastlabki bosqichini tashkil etgan. Ayniqsa, N.I. Veselovskiy [8], V.V. Bartold [6], V.L. Vyatkin [9,10,11] va boshqalarning faoliyati natijasida Samarqand yodgorliklari tavsif, xarita, nashr va muzey fondi darajasida qayd etila boshlagan. Bu jarayon hali mukammal emas edi, lekin aynan shu bosqichda Samarqand arxeologik merosi “topilma”dan “ilmiy dalil”ga aylanish yo‘liga kirgan.

Sovet davrida esa ilmiy muomalaga kiritish ancha tizimli tus oldi. Avvalgi boblarda ko‘rib chiqilganidek, 1945-yildan keyin Samarqandda arxeologiyani yangi bosqichi boshlangan, arxeologik bazalar, maxsus otryadlar, Arxeologiya instituti va ilmiy ekspeditsiyalar shakllangan. Aynan shu davrda hisobotlar, “Arxeologik kashfiyotlar”, “O‘zbekiston moddiy madaniyati tarixi”, “Afrosiyob” kabi nashrlar orqali Samarqand viloyatidagi topilmalar muntazam e‘lon qilina boshlagan. Bu jarayonning muhim jihati

shundaki, topilmalar faqat fondga topshirilib qolmagan, balki ular asosida stratigrafik, xronologik, urbanistik va madaniy xulosalar ishlab chiqilgan. Ya’ni, ilmiy muomalaga kiritish bu davrda nafaqat nashr, balki ilmiy talqin ma’nosini ham kasb etgan.

Ayniqsa, Afrosiyob bo‘yicha shakllangan tajriba bu borada alohida e’tiborga loyiq. Avvalgi boblarda ko‘rib chiqilganidek, 1945–1948-yillardagi A. Terenojkin tadqiqotlaridan boshlab [21], 1958–1966-yillardagi S.K. Kabanov, M.I. Filanovich, G.V. Shishkina, M.K. Pachos, V.A. Shishkin [13.B.143-146, 16, 17.136-140,18] va boshqalar ishlari, 1970–1980-yillardagi kompleks ekspeditsiyalar [14, 20, 12, 24], keyinchalik O‘zbekiston–Fransiya qo‘shma ekspeditsiyasi natijalari [5,7,19] turli ko‘rinishlarda ilmiy muomalaga kiritilgan. Bu yerda bir nechta bosqichni ko‘rish mumkin. Birinchisi-dala hisoboti, ikkinchisi-topilmani muzey fondiga topshirish, uchinchi-alohida maqola yoki monografik tadqiqot, to‘rtinchisi-umumlashtiruvchi tarixiy xulosa. Masalan, devoriy suratlar bo‘yicha V.A. Shishkinning tadqiqotlari [22], turarjoy kvartallari bo‘yicha G.V. Shishkina va S.K. Kabanov ishlari [15,23], qoraxoniylar davri majmualari bo‘yicha keyingi tadqiqotlar, O‘zbekiston–Fransiya ekspeditsiyasining ark va jome masjidi ostidagi qatlamlar bo‘yicha ishlari shuni ko‘rsatadiki, Afrosiyob materiallari davriy ravishda ilmiy nashrlarda muhokama qilingan.

Biroq aynan Afrosiyob yodgorligi misolida ilmiy muomalaga kiritishning birinchi yirik muammosi ham ko‘rinadi. Bu kolleksiyalarning ulkan hajmi bilan uning nashr etilish sur’ati o‘rtasidagi nomutanosiblikdir. Bu shuni ko‘rsatadiki, topilmalar yig‘ilgan, fondga kiritilgan, ayrimlari alohida o‘rganilgan. Ammo ularning hammasi bir xil darajada kataloglashtirilgan, to‘liq nashr etilgan yoki ochiq ma’lumot sifatida ilmiy hamjamiyatga taqdim etilgan emas. Shu bois Samarqand viloyatida mavjud tajriba ko‘proq selektiv ilmiy muomalaga kiritish ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Eng noyob, yaxshi saqlangan yoki tarixiy jihatdan jozibali topilmalar ko‘proq e’lon qilinadi, katta ommaviy kompleks materiallar esa fond ichida uzoq vaqt o‘z tadqiqotchisini kutadi.

Bu holat faqat Samarqandga xos emas. O‘zbekiston miqyosida, umuman postsovet davlatlarida ham ahvol shunday. Xalqaro tajribada ham katta arxeologik kolleksiyalarni to‘liq ilmiy muomalaga kiritish murakkab masala hisoblanadi. Shu sababli zamonaviy muzeyshunoslik va arxeologiya katalog, ochiq ma’lumotlar bazasi va raqamli tadqiqot kataloglariga tayanmoqda. Masalan, Britaniya muzeyida “Collection Online” elektron katalogi orqali millionlab obyektlar bo‘yicha ma’lumotlar ochiq taqdim etiladi [1]. Bundan tashqari “Online Research Catalogues” tizimi ilmiy maqolalar va tanlangan obyektlar haqidagi ma’lumotlarni jamlab, yangi ilmiy natijalarni keng jamoatchilikka taqdim etadi [2]. Bu modelda ilmiy muomalaga kiritish doimiy yangilanib turadigan raqamli ilmiy platforma hamdir.

Samarqand viloyati tajribasi bilan qiyoslanganda, bizda aynan shu yo‘nalish zaif. Arxeologik kolleksiyalar bo‘yicha fond kirim kitoblari, inventar kitoblari va arxiv hisobotlari mavjud, ammo ular ko‘p hollarda tadqiqotchi yoki fond xodimi darajasida qoladi, keng ilmiy jamoatchilik uchun ochiq raqamli muhitga to‘liq ko‘chirilmagan. Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi kolleksiyalarni ta’lim va ilmiy tadqiqot faoliyatiga keng jalb qilish uchun ma’muriy reglamentlar ishlab chiqilmagan, arxeologik materiallar interaktiv va ta’lim formatlarida hali boshlang‘ich bosqichda turibdi. Bu holat ilmiy muomalaga kiritishning tor

talqin qilinayotganini ko‘rsatadi. Buyumni fondga qabul qilish va ba‘zan maqolada tilga olish yetarli deb qaralmoqda, holbuki xalqaro tajribada bu jarayon kengroq - ma‘lumotni ochish, almashish, qayta ishlatish va yangi tadqiqotlarga ochiq qilish bilan bog‘liq.

ICOM Etika kodeksida [3] muzey kolleksiyalari professional standartlar asosida hujjatlashtirilishi, har bir buyum bo‘yicha to‘liq identifikatsiya, tavsif, aloqador obyektlar, kelib chiqishi, holati, restavratsiya tarixi va joriy joylashuvi haqidagi ma‘lumot xavfsiz muhitda saqlanishi va ruxsatga ega foydalanuvchilar uchun ochiq bo‘lishi kerakligi ko‘rsatiladi. Bu talab ilmiy muomalaga kiritishning asosi aynan to‘liq hujjatlashtirish ekanini anglatadi.

ICOM tarkibidagi Hujjatlashtirish bo‘yicha xalqaro qo‘mita-CIDOCning tegishli tavsiyalari bu yondashuvning amaliy va texnik jihatlarini yanada aniq belgilab beradi. Xususan, “Muzey obyekti haqidagi ma‘lumotlar bo‘yicha xalqaro yo‘riqnoma”da muzey ashyosiga oid ma‘lumotlarning asosiy toifalari ko‘rsatib berilgan. Bular orasida identifikatsiya, tasnif, material, o‘lcham, ishlab chiqarilish joyi va vaqti, foydalanish tarixi, kelib chiqish tarixi, joylashuv va bibliografiya bor. Bunday tizim Samarqand viloyatidagi arxeologik kolleksiyalar uchun ham nihoyatda zarur, chunki topilmalar ko‘p davrli, ko‘p hududli va ko‘p fondli tuzilishga ega. Ularni yagona ilmiy muomalaga kiritish uchun bir xil ma‘lumot standarti bo‘lishi shart.

Samarqand viloyatidagi ilmiy muomalaga kiritish tajribasining yana bir muhim tomoni - mavsumiy hisobotlardan umumlashtiruvchi ilmiy talqinga o‘tish darajasidir. Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinadiki, Samarqand viloyati yodgorliklari tadqiqotlari bo‘yicha ko‘plab hisobotlar yaratilgan. Ekspeditsiya natijalari, qazishma kundaliklari, arxiv hujjatlari, fond kitoblaridagi qaydlar va alohida topilmalar bo‘yicha maqolalar mavjud. Lekin bu boy materialning barchasi hali umumlashtirilgan yaxlit ilmiy tahlilga aylantirilgan emas. Afrosiyob bo‘yicha nisbatan ko‘proq umumlashtirish kuzatilsa-da, boshqa yodgorliklar, masalan, ayrim bronza davri manzilgohlari, petrogliflar, kichik shaharchalar yoki tasodifiy topilmalar bo‘yicha ilmiy muomalaga kiritish ko‘pincha bir-ikki maqola yoki hisobot bilan cheklanib qolgan. Shuning uchun Samarqand viloyatida ilmiy muomalaga kiritishning mavjud tajribasi kuchli bo‘lsa-da, u notekis va nomutanosibdir. Ya‘ni yirik va mashhur yodgorliklar ko‘proq, chekka va mayda yodgorliklar kamroq yoritilgan.

Bu muammoni hal qilishda xalqaro tajribada ikki yo‘l qo‘llanadi. Birinchisi yirik kolleksiyalar bo‘yicha tematik yoki regional onlayn ilmiy katalog yaratish, ikkinchisi - ochiq ilmiy arxivlar va raqamli platformalar orqali qazishma ma‘lumotlarini umumiy foydalanishga chiqarish. Pompey Arxeologik parki 2023-yilda “Open Pompeii” raqamli arxivini ochib, parkning arxeologik merosi haqidagi ma‘lumotlarni bepul foydalanishga taqdim eta boshladi [4]. Parkning rasmiy xabarida bu tizim maksimal ochiqlik va interaktivlik nuqtayi nazaridan haqiqiy inqilob sifatida baholanadi.

Samarqand uchun bu avvalo, Afrosiyob, Ko‘ktepa, Kofirqal’a, Dabusiya va boshqa tayanch yodgorliklar bo‘yicha mavjud qazishma hisobotlari, fond hujjatlari, inventar ma‘lumotlari, chizmalar, fotosuratlar va asosiy bibliografiyani birlashtirgan raqamli ilmiy platforma zarur. Bunday platforma fondagi ashyoni qazishma hududi bilan bog‘laydi,

arxivdagi eski hisobotni zamonaviy tadqiqot bilan birlashtiradi, tadqiqotchiga tezkor ma’lumot olish imkonini beradi, ekspozitsiya tayyorlashni osonlashtiradi va eng muhimi, bir yodgorlikning butun tarixini uzluksiz ko‘rsatadi. Hozirgi tajriba esa ko‘proq bo‘laklardan iborat. Arxiv bir joyda, fond boshqa joyda, nashr uchinchi joyda, ekspozitsiya esa to‘rtinchi joyda ishlaydi.

Ilmiy muomalaga kiritishning yana bir jihat - ta’lim va jamoatchilik bilan bog‘liqlikdir. Zamonaviy xalqaro amaliyotda muzey kolleksiyasi faqat mutaxassislar uchun emas, balki talabalar, o‘quvchilar, yosh tadqiqotchilar va keng jamoatchilik uchun ham bilim manbai sifatida ishlatiladi. Britaniya muzeyi o‘z tadqiqot, nashr va kolleksiya tizimlarini shu yo‘l bilan bog‘laydi. Pompey Arxeologik parki esa esa ilmiy nashr, ochiq arxiv va tashrifchiga mo‘ljallangan interpretatsiyani bir tizimda yuritadi.

Samarqand viloyatida, umuman O‘zbekistonda bu tajribaga hali o‘tilgani yo‘q. Samarqand arxeologiya instituti disrektori M.M. Saidovning aytishicha, joriy yilda Samarqand arxeologik yodgorliklari haqida birlamchi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan elektron platforma ishga tushirilishi kutilmoqda. Arxeologik kolleksiyalarni ilmiy va ta’lim faoliyatiga kengroq jalb qilish, vizual va raqamli talqin vositalaridan faolroq foydalanish, qazish rejalari, stratigrafiya sxemalari va 3D modellarni keng qo‘llash arxeologik merosni ilmiy muomalaga kiritishda muhim o‘rin tutadi. Ammo tahlillardan ko‘rinadiki, ilmiy muomalaga kiritishning hozirgi holatini yetarli emas, balki rivojlantirish talab qilinadigan sohadir.

Quyidagi sxema umumiy holatni ko‘rsatadi:

Yo‘nalish	Samarqand viloyatidagi mavjud tajriba	Xalqaro amaliyot bilan qiyos
Dala hisobotlari	Keng va boy an‘ana mavjud	Kuchli
Fondlarda rasmiylashtirish	Mavjud, kolleksiyalar qayd qilinadi	Elektron qaydlar mavjud emas
Bosma ilmiy nashr	Yirik yodgorliklar bo‘yicha mavjud	Notekis, selektiv
Yagona katalog tizimi	To‘liq integratsiyalashmagan	Zaif
Ochiq raqamli katalog	Juda cheklangan	Zaif
Ta’lim va jamoatchilik uchun foydalanish	Boshlang‘ich bosqichda	Xalqaro amaliyotdan orqada

Afrosiyob misolida ilmiy muomalaga kiritish tajribasi Samarqand viloyati bo‘yicha eng ilg‘or model bo‘lsa-da, aynan shu modelning o‘zi ham yangilashga muhtoj. Chunki bugun Afrosiyob bo‘yicha ilmiy muomalaga kiritish faqat yangi qazishmalar va alohida maqolalar bilan cheklanmasligi kerak. Jarayon eski kolleksiyalarni qayta ilmiy inventarizatsiya qilish, ilgari nashr etilmagan fond materiallarini kataloglashtirish, eski va yangi qazishmalarni yagona bazada bog‘lash, nashrlarni ochiq raqamli muhitga ko‘chirish va ilmiy ma’lumotni ekspozitsiya hamda ta’lim dasturlari bilan bog‘lash orqali davom ettirilishi kerak.

Shunga qaramay, Samarqand viloyatida arxeologik kolleksiyalar va yodgorliklarni ilmiy muomalaga kiritish bo‘yicha kuchli tarixiy tajriba mavjud. Bu tajriba dala hisobotlari,

fondlashtirish, inventarizatsiya, alohida ilmiy maqolalar, to‘plamlar va ayrim monografiyalar shaklida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, Afrosiyob bo‘yicha shakllangan ilmiy an‘ana viloyatdagi boshqa yodgorliklar uchun ham metodologik tayanch bo‘lib xizmat qilgan. Biroq mavjud tizimning asosiy kamchiligi shundaki, ilmiy muomalaga kiritish hali ham to‘liq integratsiyalashgan, ochiq, raqamli va keng foydalanishga yo‘naltirilgan shaklga o‘tmagan.

Samarqand viloyati misolida eng dolzarb vazifa yangi qazishmalarni ko‘paytirishdan ko‘ra, allaqachon yig‘ilgan ulkan ilmiy materialni yagona standart asosida qayta ko‘rib chiqish, kataloglashtirish, raqamlashtirish va ilmiy hamda ta‘limiy maqsadlarda kengroq joriy qilishdan iborat. Ana shunda arxeologik meros nafaqat saqlanadi, balki ilmiy va madaniy hayotda faol qo‘llaniladigan haqiqiy bilim resursiga aylanadi.

Adabiyotlar:

1. <https://www.britishmuseum.org/collection>
2. <https://www.britishmuseum.org/research/publications/online-research-catalogues>
3. ICOM Code of ethics for Museums. ICOM, 2017
4. Pompeii opens its digital archives to free consultation – through the open Pompeii system, a revolution in data access. <https://pompeiiisites.org/en/comunicati/pompeii-opens-its-digital-archives-to-free-consultation-through-the-open-pompeii-system-a-revolution-in-data-access>
5. Ахунбабаев Х.Г. Отчет об археологических исследованиях совместной франко-узбекской миссии на объекте Р-1 (Соборная мечеть) Афрасиба в 1992-1994 г.г. Samarqand arxeologiya instituti ilmiy arxivi 4-fond, 1-ro‘uxat, 238-ish, 36 bet
6. Бартольд В.В. Отчет о командировке в Туркестан летом 1920 г. Изв. РАИМК. II. 1922 г. С.2.
7. Бернар П. И др. Отчет о проделанных работах совместной узбекско-французкой экспедиций на Афрасиябе в 1991-1992 г.г. Samarqand arxeologiya instituti ilmiy arxivi 4-fond, 1-ro‘uxat, 228-ish, 144 bet
8. Веселовский Н.И. Заметки о курганах Туркестанского края. [] Записки Восточного отделения Императорского Русского археологического общества» (ЗВОРАО), том II, вып. 3–4, С. 221–226, 1888
9. Вяткин В. Афрасияб — городище бывшего Самарканда. Археологический очерк. Лит.: Самарканд, 1926.- 62 с
10. Вяткин В.Л. Материалы к исторической географии Самаркандского вилаята // Справочная книжка Самаркандской области. Вып. VII. Самарканд, 1902 г.
11. Вяткин В.Л. Отчет о раскопках, произведенных в октябре 1904 года в местности Намазгох близ г. Самарканда // Известия Русского комитета... № 7. 1907, С.12-20
12. Государственный музей искусства народов Востока. Отчет о работах Среднеазиатской экспедиции в 1986 году на городище Дурмон-тепа. Samarqand arxeologiya instituti ilmiy arxivi. 4-fond, 1-ro‘uxat, 135-ish. 51 bet

13. Жуков В.Д., Кабанов С.К., Шишкин В.А. Отчет о работе на городище Афрасияб осенью 1958 г. Samarqand arxeologiya instituti ilmiy arxivi. 4-fond, 1-ro'uxat, 34a-ish. 17 bet

14. Иваницкий И.Д., Иневаткина О.Н. Отчет разведотряда Согдийско-Самаркандского экспедиции за 1983-1984 годы по обследованию Кошрабатского района и археологического изучению курганного могильника Сирлибойтепа. Samarqand arxeologiya instituti ilmiy arxivi. 4-fond, 1-ro'uxat, 129-ish. 37 bet

15. Кабанов С.К. К изучению древнейших наслоений городища Афрасияб. Samarqand arxeologiya instituti ilmiy arxivi. 4-fond, 1-ro'uxat, 83a-ish. 1-8 betlar;

16. Кабанов С.К., Филанович М.И., Урманова М.Х. Раскопки части жилого массива IX-XI вв. на городище Афрасияб, раскоп 9а в 1960 г. Samarqand arxeologiya instituti ilmiy arxivi. 4-fond, 1-ro'uxat, 36-ish. 132 bet

17. Пачос М., Две находки из Афрасиаба // История материальной культуры Узбекистана, вып. 8, Ташкент, 1969, стр. 143–146.

18. Пачос М. Стратиграфический разрез в юго-западной части Афрасияба. 1965 г. Samarqand arxeologiya instituti ilmiy arxivi. 4-fond, 1-ro'uxat, 48a-ish. 10 bet

19. Пол Бернар, Франц Грене, Иваницкий И.Д. Отчет об археологических раскопках в северной части городища Афрасияб на раскопе 2. Samarqand arxeologiya instituti ilmiy arxivi. 4-fond, 1-ro'uxat, 211-ish. 22 bet

20. Пугаченкова Г.А. Отчет о работах Мианкальской группы Узбекстанской искусствоведческой экспедиции института искусствознания им. Хамза в 1981 г. Samarqand arxeologiya instituti ilmiy arxivi. 4-fond, 1-ro'uxat, 116-ish. 41 bet

21. Тереножкин А.И. Раскопки на городище Афрасиаб, КСИИМК, XXXVI, 1951, стр. 136-140

22. Шишкин В.А. Новые памятники искусства древнего Согда. 1965г. Samarqand arxeologiya instituti ilmiy arxivi. 4-fond, 1-ro'uxat, 49-ish. 11 bet

23. Шишкина Г.В. Городской квартал VIII-XI на северо-западе Афрасияба. Афрасияб. Сборник. Вып.2. Т-1973, С.140

24. Шишкина Г.В. Отчет о работе Среднеазиатской археологической экспедиции 1989 г. Samarqand arxeologiya instituti ilmiy arxivi. 4-fond, 1-ro'uxat, 193-ish. 26 bet